

UZBEKİSTAN

LANGUAGE & CULTURE

**O'ZBEKİSTON  
TIL VA MADANIYAT**

**Metodika**

**2022 Vol. 2 (4)**

**[www.metodika.tsuull.uz](http://www.metodika.tsuull.uz)**

**ISSN 2181-922X**

**ISSN 2181-922X**

# **O'ZBEKISTON**

**TIL VA MADANIYAT**

**Metodika**

**2022 Vol. 2 (4)**

**[www.metodika.tsuull.uz](http://www.metodika.tsuull.uz)**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

**Bosh muharrir:** Marg'uba Abdullayeva

**Bosh muharrir o'rinosbosari:** Gulnoza Jo'rayeva  
Shohruh Abdiraimov

**Mas'ul kotib:** Klaraxon Mavlonova

### **Tahrir kengashi**

Saidbek Boltaboyev (Turkiya), Ayshi Chetin (Turkiya), Muratbek Bagila Kurmanbekkizi (Qozog'iston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Roza Niyozmetova, Shohida Yusupova, Valijon Qodirov, Tursunoy Yusupova, Shahlo Yo'ldosheva, Hoshimjon Ahmedov, Saodat Qambarova, Matluba Jabborova, Odina Saidahmedova, Dilfuza To'xliyeva, Mahfuza To'ychiyeva, E'zoza Sobirova.

### **Jurnal haqida ma'lumot**

**"Metodika"** seriyasi – Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi "O'zbekiston: til va madaniyat" akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, ta'lim va tarbiya nazariyasi, til va adabiyot o'qitish metodikasi, gumanitar fanlarni o'qitish sohalarini qamrab olgan. "Metodika" seriyasida professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning global ta'limdagi muammolar, til va adabiyot o'qitishdagi innovatsion yondashuvlar, ta'lim va tarbiya nazariyasi yo'nalishidagi ilmiy maqolalari nashr etiladi.

Jurnal bir yilda ikki marta chop etiladi.

O'zbek, ingliz va rus tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiylar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

"O'zbekiston: til va madaniyat. "Metodika" seriyasi 2022-yildan nashr etila boshlangan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

**Email:** metodika@tsuull.uz

**Vebsayt:** [www.metodika.tsuull.uz](http://www.metodika.tsuull.uz)

## MUNDARIJA

### GLOBAL TA'LIM MUAMMOLARI: YECHIMLAR VA TAKLIFLAR

#### Saodat Kambarova

Blum taksonomiyasi – o'quv materiallarini o'zlashtirishning muhim vositasi sifatida ..... 4

#### Rayhona Tillayeva

Tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish – yaratuvchanlik omili sifatida.....13

#### Omonulla Bayjigitov

Badiiy matnlarda obrazli frazeologik birliklarning kognitiv xususiyatlari.....25

#### Ерлан Нугуманов

Әдебиет пәнін оқытудағы эмоция, сыни ойлау, көшбасшылық мәселелері.....34

#### Farrux Qulsaxatov

"Boburnoma" va fanlararo integratsiya.....43

### TIL TA'LIMI NAZARIYASI VA AMALIYOTI

#### Tursunay Yusupova

O'quvchilarda insho matnidagi xatboshilarning vazifaviy-mazmuniy turlariga doir bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish.....51

#### Klaraxon Mavlonova

Ona tili darslarida matnning tuzilish xususiyatlarini o'rganish zarurati.....60

#### Odinaxon Saidaxmedova

Til o'zlashtirish: ilmiy yo'nalish sifatida shakllanishi hamda unga doir nazariyalar .....

72

#### Sanobar Kuldasheva

Ona tili darslarining yangi mavzuni tushuntirish bosqichlarida multimedia vositalaridan foydalanish .....

86

#### Dilnoza Boymaxmatova

Nutqiylarini rivojlantirishda to'garak mashg'ulotlarining o'rni.....100

### ADABIYOT O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUV

#### Gulnoza Jurayeva

Bolalar adabiyotini o'qitishda hajviy she'riyatning ahamiyati (Muazzam Ibrohimova ijodi misolida)..... 112

#### Dilfuza Tuxliyeva

Mumtoz lirik janrlarni o'qitishga oid nazariy qarashlar va ularning milliy metodikadagi ahamiyati .....

121

#### Iroda Ishonxanova

Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'rganishda Blum taksonomiyasini qo'llashning ahamiyati..... 136

#### Mastona Norqulova

"Algomish" dostonini o'qitishda muammoli vaziyatlarni tashkil qilish usullari....148

#### Mahliyo Elboyeva

O'zbek bolalar adabiyotini o'rganishda texnologik yondashuv..... 157

## Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'rganishda Blum taksonomiyasini qo'llashning ahamiyati

Iroda Ishonxanova<sup>1</sup>

### Abstrakt

Alisher Navoiy hayat yo'li va asarlarini o'rganish umumiyo'rta ta'lif maktablari rejasining salmoqli qismini egallaydi. Dasturga kiritilgan mavzularni o'quvchilar tushunishlari va his qilishlari uchun o'quv mashg'ulotlari jarayonida turli usullardan unumli foydalanish talab etiladi. Ushbu maqolada mumtoz adabiyot namunalari o'quvchilar samarali o'zlashtirishlari va qabul qilishlari uchun Blum taksonomiyasidan foydalanishning afzalliklari haqida so'z boradi. Adabiyot fani o'qituvchilar uchun Alisher Navoiy hayat yo'li va uning ijod namunalari Blum taksonomiyasi asosida o'rganilishiga tavsiyalar keltirilgan. Yuqoridagi metodni qo'llash o'quvchilarning mumtoz adabiyot namunalarini tushunishga, Alisher Navoiy shaxsiga hurmati ortishiga, o'z mustaqil fikriga ega bo'lishi hamda uni ifodalab bera olishiga erishishda amaliy yordam berishi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Blum taksonomiyasi, eslab qolish, tushunish, qo'llash, baholash, tahlil qilish, yaratish

### Kirish

Alisher Navoiysiymosio'zbekadabiyot tarixining eng mashhur vakillaridan biri hisoblanadi. Buyuk bobokalonimiz hayatı va ijodini o'rganish masalasi qiziqarli bo'lish bilan birga, murakkab hamdir. "O'zbekiston Qahramoni", adabiyotshunos olim Ozod Sharafuddinov adabiyot o'qituvchisining asosiy vazifasi kitobxon yetishtirish ekanligini ta'kidlagan edi. Haqiqiy kitobxonning adabiyotga muhabbatida Alisher Navoiy salmoqli o'rni bo'lishi uchun o'quvchilar uning asarlarini sevib o'qishlari, tushunishlari, izohlay olishlari lozim. Bu natijaga erishish uchun adabiyot fani o'qituvchilari muntazam ravishda o'z ustilarida ishlashlari zaruriy jarayon hisoblanadi. Shu maqsadda fan o'qituvvchilari zamonaviy texnologiyalardan yaxshi

<sup>1</sup>Ishonxanova Iroda Abduvaxitovna – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti "Ona tili va adabiyot ta'limi" kafedrasи o'qituvchisi

E-pochta: irodaishonxanova@gmail.com

ORCID ID: 0000-0003-1761-8408

**Iqtibos uchun:** Ishonxanova, I. 2022. "Alisher Navoiy hayatı va ijodini o'rganishda Blum taksonomiyasini qo'llashning ahamiyati". *O'zbekiston: til va madaniyat* 2(4): 136 – 147.

xabardor bo'lislari, kompyuter texnologiyalarini faol qo'llay bilishlari, innovatsion dars usullari mohiyatini yaxshi o'zlashtirgan bo'lislari zarurligi alohida ta'kidlanadi. Buning sababi, keyingi yillarda an'anaviy dars usullariga qiziqish va intilish o'quvchilarda kamayib bormoqda. Chunki ko'plab o'quvchilar xorijiy tillarni yaxshi o'zlashtirishga harakat qilishmoqda, til o'rganish jarayonida xorijdagi zamonaviy dars usullaridan ham boxabar bo'lmoqdalar.

### **Asosiy qism**

Yangi pedagogik texnologiyalar bugungi kun o'qituvchilari uchun g'oyat zarur vosita hisoblanadi. Ulardan faol va unumli foydalana olgan fan o'qituvchilari ta'lim jarayonida sezilarli natijalarga erishishlari bugungi kunda amalda o'z isbotini topmoqda. O'quvchilarni mumtoz adabiyot namunalari bilan yaqindan tanishtirish uchun qanday zamonaviy dars usullarini qo'llasak, o'z maqsadimizga erisha olamiz? Ushbu maqolada Blum taksonomiyasi usuli haqida o'z mulohazalarimizni bildirmoqchimiz.

#### **Blum taksonomiyasi haqida ma'lumot**

Avvalo, "Blum taksonomiyasi" atamasiga ta'rif bersak. "Taksonomiya" – bu biror narsani ierarxik tartib(pastdan yuqoriga qarab)da joylashtirish prinsipi degan ma'noni bildiradi. Amerikalik psixolog Benjamin Blum boshchiligidagi Chikago universiteti olimlari ushbu oliy maqsadlatr tizimini ishlab chiqishgan. Bu g'oya birinchi marta 1956-yilda "Ta'lim maqsadlari taksonomiyasi" kitobida nashr etilgan.

Benjamin Blum ta'lim maqsadlarini kognitiv, affektiv va psixomotor deb nomlanuvchi uchta sohaga ajratdi.

Kognitiv(bilmoq, anglamoq, tushunmoq va fikrlamoq) soha bu bilim, tushunish va tanqidiy fikrlashga xizmat qiladi. Bilim sohasi ma'lumotlar bilan tanishish, ularni yodlashdan tortib, olingan ma'lumotlar yordamida muammolarni hal qilishgacha bo'lgan jarayonni o'z ichiga oladi.

Affektiv soha his-tuyg'ular bilan bog'liq bo'lib, affektiv sohaning asosiy maqsadi atrofdagi dunyo hodisalariga hissiy munosabatni shakllantirishdan iboratdir. Bunga odamning turli hayotiy vaziyatlarga, boshqa insonlarning qadriyatlari, qiziqishlari va moyilliklariga qanday munosabatda bo'lishi kuzatiladi hamda munosabat bildiriladi.


Psixomotor(qo'zg'aluvchi, yaratuvchi) soha amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish bilan bog'liq va turli xil vositalardan foydalanish qobiliyatini maqsadlarga yo'naltirish bilan shug'ullanadi.

Yuqorida keltirilgan sohalar orasida kognitiv sohaga ko'proq e'tibor qaratiladi. Chunki ketma-ket sodir bo'layotgan barcha jarayonlarning asosida mustahkam o'zlashtirilgan bilim yotadi.

Benjamin Blum ierarxik tartibda joylashtirilgan oltita darajadagi o'quv maqsadlarini belgilagan. Bunda har bir daraja ma'lum fikrlash qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan.

Blum taksonomiysi ta'lif maqsadlarini to'g'ri belgilashga yordam beradi. Maqsadlarga asoslanib, o'qituvchi o'quvchilar uchun vazifalarni shakllantiradi va baholash vositalarini tanlaydi. Taksonomiya yordamida o'qituvchi ta'lifni tashkil etadi va o'quvchi nafaqat yangi bilimlarni oladi, balki ularni tahlil qilishni va hayotda qo'llashni o'rganadi.

Blumning maqsadlar tizimi oddiydan murakkabgacha qurilgan. Eslab qolish va tushunish fikrlash va rivojlanishning eng past darajasiga, qo'llash va baholash – o'rtacha, tahlil qilish va yaratish – fikrlashning yuqori darajasiga tegishli. Blumning fikriga ko'ra, o'qituvchining eng asosiy vazifalaridan biri o'quvchilardagi fikrlashning yuqori darajasiga erishishdir.



### **1. Eslab qolish**

Birinchi daraja olingan ma'lumotlarni eslab qolish va takrorlash bilan boshlanadi. O'quvchi asosiy atamalarni, aniq faktlarni, qoidalarni bilib oladi va ularni takrorlashi mumkin. Birinchi darajada mavzu haqida umumiyyat fikr shakllanadi.

Maqsadni belgilash uchun harakat fe'llaridan foydalaning: aniqlash, nomlash, eslab qolish, tartibga solish, ro'yxatlash, o'rganish, topish, ko'rsatish, yozish, tanlash.

## **2. Tushunish**

Ikkinchi bosqichda tushunish va xabardorlik sodir bo'ladi. Ushbu bosqichni o'zlashtirishning asosiy ko'rsatkichi materialni o'z so'zlarining bilan taqdim etish qobiliyatidir. O'quvchi qoidalar va prinsiplarni biladi va tushunadi, faktlar va hodisalarni tushuntirishi, grafikalar va diagrammalarga izoh berishi mumkin.

Harakat fe'llari: aniqlang, tushuntiring, tavsiflang, sharhlang, taqqoslang, umumlashtiring, ajratib oling, misol keltiring, izohlang.

## **3. Qo'llash**

Uchinchi bosqichning maqsadi - olingen bilimlarni muayyan vaziyatlarda qanday ishlatishni o'rganish. O'quvchi amaliy muammolarni yangi qoidalar, formulalar va qonunlar yordamida hal qiladi.

Harakat fe'llari: qaror qabul qilish, tarqatish, ko'rsatish, tushuntirish, qo'llash, hisoblash, o'rganish, tajriba o'tkazish, topish, tanlash.

## **4. Baholash**

To'rtinchi darajada talabaning maqsadi materialning tuzilishini tushunish va uni tegishli qismlarga bo'lish qobiliyatidir. O'quvchi ma'lumotlarni yaratish prinsipini ko'radi va mantiqiy xatolarni topishi mumkin.

Harakat fe'llari: tahlil qilish, ta'kidlash, qurish, aniqlash, tushuntirish, tartibga solish, o'ylab topish, qurish, qarama-qarshi, ajratish, xulosa chiqarish.

## **5. Tahlil qilish**

Beshinchi darajaga etganida, o'quvchi o'z bilimlarini umumlashtirishi va birlashtirishi mumkin. U bilimlarni tasniflash usuli yoki muammoni hal qilish rejasiga kabi yangi tuzilmani yaratish uchun ishlatadi.

Harakat fe'llari: tuzish, ishlab chiqish, guruhlash, birlashtirish, o'rnatish, rejalshtirish, umumlashtirish, tekshirish, taklif qilish, shakllantirish, tahlil qilish.

## **6. Yaratish**

Eng yuqori darajada, o'quvchi o'z fikrlari va g'oyalarini o'zi yoki o'qituvchining yordami bilan shakllantirishi mumkin bo'lgan mezonlar orqali baholaydi. Asosiy maqsad - materialni qurish mantig'ini baholash, xulosalarning to'g'riligini tekshirish va o'z nuqtayi nazaringizni isbotlash.

Harakat fe'llari: kashf qilish, tuzish, himoya qilish, bayon qilish, muhokama qilish, tekshirish, asoslash, tasdiqlash, bashorat qilish.

Navoiy hayoti va ijodini o'rganishda Blum taksonomiyasi quyidagi shakl va mazmunda aks etishi mumkin:

### **Alisher Navoiy hayoti bo'yicha Blum taksonomiyasini qo'llash**

Eslab qolish – Alisher Navoiy hayot yo'li bo'yicha topshiriqlar beriladi. Umumiylar o'rta ta'limga muktabalarining 5-11-sinf "Adabiyot" darsliklarining deyarli barchasida Alisher Navoiy hayoti haqidagi ma'lumotlar berilgan. Lekin faqat bu bilan cheklanmaslik kerak deb hisoblaymiz. Shoир hayoti haqida ma'lumot beruvchi juda ko'plab tarixiy va zamonaviy manbalar borligini ta'kidlab o'tamiz. Xondamirning "Makorim ul-axloq" asari, "El desa Navoiyni", "Navoiy zamondoshlari xotirasida" to'plamlari, Mirkarim Osimning "Zulmat ichra nur" asari, Oybekning "Alisherning bolaligi" qissasi, Uyg'un va Izzat Sultonning "Navoiy" dramasi, Oybekning "Navoiy" hamda Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romanlari haqida berilgan ma'lumotlar o'quvchilar tafakkurini boyitadi, Navoiy shaxsi haqidagi tushunchalarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Tushunish – o'quvchi shoир haqidagi darslikda berilgan tarixiy faktlar haqida ma'lumot beradi. Sinfdan tashqari o'qilgan asarlariga ham asoslangan holda fikrlar bildirilsa, o'quvchilarning Alisher Navoiy hayoti haqidagi ma'lumotlari shakllanib boradi. Shu o'rinda o'quvchilardan shoirni qanday tasavvur qilishi haqida mustaqil fikri ni so'rash ham qiziqarli topshiriq hisoblanadi. Bu topshiriq o'quvchi tafakkurini, dunyoqarashini kengaytiradi.

Qo'llash – Alisher Navoiy hayot yo'lining xronologik jadvalini yaratish vazifasi beriladi. Bunda o'quvchilarda jadval bilan ishslash hamda ma'lumitlarni ketma-ketlikda to'g'ri joylashtirish malakasi paydo bo'ladi. Yana bir e'tiborga molik tomoni, o'quvchi Alisher Navoiy o'z hayoti davomida qilgan bonyodkorlik ishlari, yaratgan badiiy va ilmiy asarlari, o'z yaqinlariga va xalqqa qilgan yaxshiliklaridan ilhomlanadi, shoirga bo'lgan hurmati oshadi. Kelajakda Alisher Navoiydek xalqqa xizmat qiluvchi inson bo'lib yetishishga intiladi.

Tahlil qilish – Alisher Navoiyning bolalik yillari haqidagi ma'lumotlar tahlil qilinadi. Bu jarayonda o'quvchilarga shaxsiy fikrni mustaqil bayon etishga undaydigan turli savollar berish mumkin. Ya'ni, "Uning buyuk inson bo'lib yetishishi bolaligidagi qaysi xatti-harakatlaridan sezilgan?", "Hozirgi bolalar Alisherdeklar bo'la olishadimi?" kabi savollarga javob berib, o'zini Navoiyning yoshligi bilan qiyoslaydi.

Baholash – Alisher Navoiyning hayot yo'li tanqidiy qarash bilan baholanadi. Bunda o'qituvchi sinfga muammoli savol tashlashi

maqsadga muvofiq. Bu savollar Navoiy asarlariga ham, uning hayot yo'liga ham taalluqli bo'lishi mumkin. Masalan, o'quvchilar Alisher Navoiy vazir lavozimida ishlaganida, saroydagi fitnalar tufayli ketib qolmasdan, nohaqliklar bilan kurashish kerakligi haqidagi savol borasida fikr bildirishlari mumkin. Yoki nima sababdan Xusrav emas, balki Farhod komil inson sifatida tasvirlangani haqida bahslashishlari o'quv mashg'ulotlarining qiziqarli o'tishiga yordam beradi.

Yaratish – oxirgi bosqich eng murakkab va eng qiziqarli hisoblanib, o'quvchidan ijodkorlik talab etiladi. Bu bosqichdagi vazifalarda, albatta, o'quvchilarning yosh xususiyati inobatga olinishi muhim. 5–7-sinf o'quvchilariga nisbatan soddaroq topshiriq beriladi. Alisher Navoiyning portretini yaratish vazifasi berilsa, o'quvchilar matn orqali shoir shaxsiyatini ochib beradilar. 8–9-sinflar uchun shoir hayotini qismlarga bo'lib, taqdimot qilish topshirig'i berilishi mumkin. 10–11-sinf o'quvchilar shoir hayot yo'li haqida intervyu tayyorlasalar yoki Alisher Navoiy haqidagi asardan parchani sahnalashtirsalar, maqsadga muvofiq bo'lardi.

### **Alisher Navoiy ruboilyari bo'yicha Blum taksonomiyasini qo'llash**

Eslab qolish – 8-sinf "Adabiyot" darsligida ruboiy haqida nazariy ma'lumot hamda Alisher Navoiy ruboilyari izohi bilan berilgan. O'quvchidan ushbu nazariy ma'lumotni o'zlashtirish va ruboilyardan namunalar yod olish vazifasi beriladi.

Tushunish – ruboilyarning g'oyasi, mohiyati haqida fikr bildiradi. Bu topshiriqni bajarish o'quvchilar uchun qiyinchilik tug'dirmaydi. Chunki darslikka kiritilgan ruboilyarning mazmuni va g'oyasi haqidagi ma'lumotlar ham keltirib o'tilgan.

Qo'llash – ruboioyning mazmunini yozish vazifasi beriladi. Ushbu vazifani bajarish o'quvchilar yozma nutqini rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Negaki, o'z fikrini mustaqil bayon etishga harakat qilgan o'quvchi so'zlarni takrorlamaslikka, chiroyli o'xshatishlar qilishga, matnni mazmunli tarzda yozishga harakat qiladi.

Tahlilqilish – ruboilyarniboshqajanrgategishlito'rtliklar(qit'a, tuyuq) bilan qiyoslab, lingo-poetik tahlil qilish vazifasi beriladi. Bu o'rinda o'quvchilarini to'rtlik shaklidagi barcha janrlar haqidagi nazariy ma'lumotlardan boxabar qilish zarurligini eslatib o'tamiz.

8-sinf darsligiga quyidagi ruboiy kiritilgan:

Ahbob, yigitlikni g'animat tutunguz,  
O'zni qariliq mehnatidin qo'rqtunguz.  
Oyini adovatu hasaddin o'tunguz,  
Har nav' ila o'zni necha kun ovutunguz.

Tabiiyki, bu ruboiyning izohi ham berilgan. Aynan shu ruboiyni shoirning quyidagi qit'asi bilan qiyoslash topshirig'ini o'quvchilarga bersak bo'ladi:

Kamol et kasbkim, olam uyidin,  
Sanga farz o'limg'ay g'amnok chiqmoq.  
Jahondin notamom o'tmak biayni,  
Erur hammomdin noplak chiqmoq.

Ushbu qit'ani tanlashimizga sabab – ikkala to'rtlikda ham hayotning mazmuni haqidagi fikr aks etganligi. O'quvchilarga "Venn diagrammasi" metodi orqali bu to'rtliklarni qiyoslash vazifasini berish samarali natija beradi. Chunki "Venn diagrammasi"da ikki tushunchaning o'xshash va farqli tomonlari jadvalda aniq va tartibli holda namoyon bo'ladi, tahlil obyektlari yaqqol ko'zga tashlanadi.

Baholash – o'quvchi ruboiyning imkoniyatlarini baholaydi. Ya'ni, to'rt misrada juda muhim fikrni bildirish mumkinligini isbotlab beradi. Shu o'rinda o'quvchilarga mustaqil ish sifatida darslikka kiritilmagan ruboilyarni izohlash topshirig'ini berish mumkin. Biz quyidagi ruboilyarni tavsiya etishimiz mumkin:

Jonimdog'i "jim" ikki dolingga fido,  
Anding so'ng "alif" toza niholingga fido,  
"Nun"i dog'i anbarin hilolingga fido,  
Qolg'on iki nuqta ikki xolingga fido.

Gar oshiq esang, zebu takallufni unut,  
Yaxshiyu yamon ishda taxallufni unut,  
O'tgan gar erur yamon, taassufni unut,  
Kelgan gar erur yaxshi, tasarrufni unut.

Kim istasa sultanat, saxodur anga shart,  
Har va'daki aylasa, vafodur anga shart.  
Kim faqr talab qilsa, fanodur anga shart,  
Ollig'a nekim kelsa, rizodur anga shart.

Albatta, o'qituvchi darslikka kiritilmagan ruboilyar tarkibida-gi tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlarning izohini o'quvchilar hukmiga havola etishlari maqsadiga muvofiq bo'ladi.

Yaratish – ruboilyarning mazmuni, g'oyasi aks etgan esse, insho, maqola yozish yoki loyiha tayyorlash kabi vazifalarni bajaradi. Ma'lumki, hozirgi kunda ko'pchilik yoshlar xorijiy tillarni o'rganishga katta e'tibor bermoqdalar. Tilimizga yozma ish turi sifatida xorijiy tildan kirib kelgan esse haqida ma'lum tushunchaga egalar. Shu

sababli Alisher Navoiy ruboilari haqida esse yozish ularga qiyinchilik tug'dirmaydi. Esse matnida tahlil hamda shaxsiy fikr muhim o'rinni egallaydi. Qiziqarli topshiriq sifatida slayd shaklidagi taqdimot tayyorlash vazifasini berish mumkin. Negaki, o'quvchilar kompyuter texnologiyalaridan yaxshi xabardor, turli dasturlardan o'rinni va samarali foydalanish ko'nikmasiga egadirlar. Multimedia vositalaridan ham faol foydalana oladilar.

Biz yuqorida Blum taksonomiyasini Alisher Navoiy hayoti va ruboilari tadqiqida qo'llashga oid mulohazalarimiz bilan o'rtoqlashdik. Aniq sezilib turibdiki, bu usulni adabiyot faniga oid o'quv mashg'ulotlarida qo'llasak, yaxshi natijalarga erishamiz. Bundan tashqari, Blum taksonomiyasining ta'lim oluvchilarga motivatsiya berish, ularni ruhlantirish xususiyati ham bor. "Motivatsiya" so'zining faoliyatga undash ma'nosi mavjud. Blum taksonomiyasi ham o'qituvchini va o'quvchini faol bo'lish, aqli harakat qilish, ko'proq ma'lumot o'zlashtirish hamda ularni amalda qo'llashga undaydi. Bu usulni qo'llash uchun o'qituvchi ham o'z ustida ishlaydi, o'quvchilar ham bilim hamda ko'nikmalarini oshirishga intiladilar. O'quvchilarga mustaqil bajarish uchun qiziqarli hamda mas'uliyatli vazifalar topshirilsa, ular bu masalaga jiddiylik bilan yondashadilar. Yangicha g'oyalarni kashf etadilar.

Tahlil qilish va baholash talab etiladigan bosqichlarda o'quvchilar o'zlarini haqiqiy ekspert, soha mutaxassisni sifatida his qiladilar. Fan o'qituvchisi so'zlab bergen mazmun, belgilab bergen reja, tushuntirib bergen g'oya o'zi uchun buzib bo'lmash qonun emasligini his etgan o'quvchi erkin fikrlay boshlaydi. O'z mulohazalarini mustaqil tarzda va ta'sirchan ko'rinishda ifodalashga harakat qiladi.

Blum taksonomiyasining eng yuqori bosqichi – yaratish bosqichida o'quvchilarning kashfiyotchilik iqtidori namoyon bo'ladi. Ularning har biri o'z yaratig'ining boshqalaridan ajralib turishini, noan'anaviy bo'lishini xohlaydi. Shu o'rinda san'atga qobiliyati bo'lgan o'quvchilarning tashabbusidan samarali foydalanilsa, o'quv mashg'uloti jarayoni yanada jonli o'tadi. Misol uchun, rassomchilikka iqtidori bo'lgan o'quvchilar Alisher Navoiy portretini, Hiro tasvirini yoki mumtoz miniatyura namunalarini chizib kelishi mumkin. Teatr san'atiga qobiliyati bor o'quvchi Alisher Navoiy qiyofasida o'quv mashg'ulotida qatnashishi sinfdagi muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatadi deb o'ylaymiz. Qo'shiqchilikka iqtidori bor o'quvchilar Alisher Navoiy g'azali bilan aytildigan ashulalardan namunalar, hech bo'limganda, parchalar ijro etib berishlari sinfda mumtoz adabiyot ruhiyatini

beradi.

### **Xulosa**

Yuqoridagi ma'lumotlar hamda fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, Blum taksonomiyasi o'quvchilarni Alisher Navoiy hayoti va ijodiga yaqinlashtiradi, mumtoz adabiyot namunalarini tushunishga hamda qabul qilishga undaydi. Chunki, Alisher Navoiy asarlari tili murakkabligi o'quvchilar ularning mazmun-mohiyatini tushunishlariga to'sqinlik qiladi. Blum taksonomiyasida esa o'quvchi Navoiyni anglashga ierarxik tarzda, bosqichma-bosqich yaqinlashadi. Va, albatta, dars materialining ham birmuncha soddalashishiga erishamiz. Shu o'rinda Alisher Navoiy shaxsi haqida hikoya qiluvchi zamonaviy asarlarni alohida ta'kidlab o'tishimiz zarur. Zamonaviy asarlarning tili o'quvchiga tanishligi bilan ulug' shoirimizni bizga yaqinlashtiradi, ushbu asarlardan parchalar keltirish orqali o'quvchilarda adabiyotga, xususan, Alisher Navoiy ijodiga muhabbat uyg'otishga erishamiz. Zero, ulug' bobokalonimiz ijod olami cheksizligi hamda teranligi bilan asrlar osha o'z qadr-qimmatini yo'qotmagan. Yosh avlodni ushbu ummondan bahramand qilish uchun adabiyot darslaridagi usullarni yanada takomillashtirish, yangi innovatsion texnologiyalarni faol qo'llash zarur.

Alisher Navoiyning hayoti va ijodiga oid ta'lumi mazmuni va metodikasini takomillashtirish uchun har bir sinf adabiyot darsligiga Alisher Navoiy hayoti haqidagi ma'lumotlardan kiritish, shoir shaxsiyati haqida ma'lumot berganda, tarixiy manbalardan unumli foydalanish, "Navoiy zamondoshlari xotirasida" hamda Alisher Navoiy muxlislari uchun yaxshi tanish bo'lgan "El desa Navoiyni" kitoblaridan o'quvchilarning yoshini inobatga olgan holda turli hikoyatlar bilan tanishtirish va bu orqali Navoiy shaxsi haqida o'quvchilar tasavvurini boyitib borish, shuningdek, hamkorlikda ishslash, Blum taksonomiyasi darajalariga mos savol va topshiriqlar ishlab chiqish zarur.

### **Adabiyotlar**

Ahmedov, S. va boshqalar. Adabiyot. Darslik. Umumiy o'rta ta'lif maktablarining 5-sinf o'quvchilari uchun. Toshkent: Sharq, 2020.

Ahmedov, S. va boshqalar. Adabiyot. Darslik. Umumiy o'rta ta'lif maktablarining 6-sinf o'quvchilari uchun. Toshkent: Ma'naviyat, 2017.

Husanboyeva, Q. va b. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – Innovatsiya-Ziyo, 2020.

Olim, S. va boshqalar. Adabiyot. Darslik. Umumiy o'rta ta'lif maktablarining

- 8-sinf o'quvchilari uchun. Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 2019.
- Sirojiddinov, Sh. va boshqalar. Navoiyshunoslik. Darslik. Toshkent: Tamaddun, 2019.
- To'xliyev, B. va b. Ta'lif bosqichlarida Alisher Navoiy asarlarini o'rganish. – Toshkent: Bayoz, 2017.
- To'xliyev B.va boshqalar. Adabiyot. Darslik. Umumiyligida o'rta ta'lif muktabalarining 10-sinf o'quvchilari uchun. I qism. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.
- To'xliyev B.va boshqalar. Adabiyot. Darslik. Umumiyligida o'rta ta'lif muktabalarining 11-sinf o'quvchilari uchun. I qism. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018.
- To'xliyev, B.va boshqalar. Alisher Navoiy hayoti va ijodi. Albom. Toshkent: Bayoz, 2013.
- Yusupova, D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. Toshkent: Ta'lif-media, 2019.
- Yo'ldoshev, Q. Adabiy saboqlar. Metodik qo'llanma. Umumta'lif muktabalarining 7-sinf "Adabiyot" darsligi uchun. Toshkent: Bilim, 2003.
- Yo'ldoshev, Q. va boshqalar. Adabiyot. Darslik. Umumiyligida o'rta ta'lif muktabalarining 9-sinf o'quvchilari uchun. Toshkent: O'zbekiston, 2019.
- Yo'ldoshev, Q. va boshqalar. Adabiyot. Darslik. Umumiyligida o'rta ta'lif muktabalarining 7-sinf o'quvchilari uchun. Toshkent: Sharq, 2017.
- Мадаев, О. Навоий сұхбатлари. – Тошкент, Ўқитувчи, 2018.
- Навоий замондошлари хотирасида. Түпнама. Тузувчи: Б.Аҳмедов. – Тошкент, Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985.
- Навоий, А. Бадоеъ ул-васат. МАТ. 20 жилдлик, 5-жилд. Тошкент: Фан, 1990.
- Навоий, А. Ғаройиб ус-сигар. МАТ. 20 жилдлик, 3-жилд. Тошкент: Фан, 1988.
- Навоий, А. Фарҳод ва Ширин. МАТ. 20 жилдлик, 8-жилд. Тошкент: Фан, 1991.
- Навоий, А. Ҳикматли сўзлар. Тошкент, 1985.
- Султон, И. Алишер Навоий. Роман. – Тошкент, Адабиёт, 2021.
- Ҳасанов, Б. Навоий асарлари учун қисқача луғат. Тошкент: Фан, 1993.
- Эл деса Навоийни. Ҳазрат Мир Алишер Навоий ҳақида ривоятлар. – Тошкент, Чўлпон, 1991.

# The importance of using Bloom taxonomy in the study of life and creativity of Alisher Navoi

Iroda Ishonxanova<sup>1</sup>

## Abstract

The study of the life path and works of Alisher Navoi occupies a significant part of the plan of general secondary schools. In order for students to understand and feel the topics included in the program, it is required to make the most of various methods in the process of training. This article will talk about the benefits of using Bloom taxonomy so that readers can effectively absorb and receive samples of classical literature. For teachers of literary science, recommendations are given to the study of the life path of Alisher Navoi and examples of his creativity on the basis of Bloom taxonomy. It was thought that the application of the above method would provide practical assistance to students in understanding the samples of classical literature, to increase respect for the Personality of Alisher Navoi, to have their own independent opinion and to be able to express it.

**Keywords:** *Bloom taxonomy, remember, understand, apply, evaluate, analyze, create.*

## References

- Ahmedov, S. va boshqalar. Adabiyot. Darslik. Umumiy o'rta ta'lim mакtablarining 5-sinf o'quvchilari uchun. Toshkent: Sharq, 2020.
- Ahmedov, S. va boshqalar. Adabiyot. Darslik. Umumiy o'rta ta'lim mакtablarining 6-sinf o'quvchilari uchun. Toshkent: Ma'naviyat, 2017.
- Husanboyeva, Q. va b. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – Innovatsiya-Ziyo, 2020.
- Olim, S. va boshqalar. Adabiyot. Darslik. Umumiy o'rta ta'lim mакtablarining 8-sinf o'quvchilari uchun. Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 2019.
- Sirojiddinov, Sh. va boshqalar. Navoiyshunoslik. Darslik. Toshkent: Tamaddun, 2019.
- To'xliyev, B. va b. Ta'lim bosqichlarida Alisher Navoiy asarlarini o'rganish. – Toshkent: Bayoz, 2017.

<sup>1</sup>Ishonhanova Iroda Abduvakhitovna – Teacher of the Department of mother tongue and literature education, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

Email: irodaishonxanova@gmail.com

ORCID ID: 0000-0003-1761-8408

For citation: Ishonhanova, I. 2022. "The importance of using Bloom taxonomy in the study of life and creativity of Alisher Navoi". *Uzbekistan: language and culture* 2(4): 136 – 147.

- To'xliyev B.va boshqalar. Adabiyot. Darslik. Umumiyl o'rta ta'limg muktablarining 10-sinf o'quvchilari uchun. I qism. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.
- To'xliyev B.va boshqalar. Adabiyot. Darslik. Umumiyl o'rta ta'limg muktablarining 11-sinf o'quvchilari uchun. I qism. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018.
- To'xliyev, B.va boshqalar. Alisher Navoiy hayoti va ijodi. Albom. Toshkent: Bayoz, 2013.
- Yusupova, D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. Toshkent: Ta'lim-media, 2019.
- Yo'ldoshev, Q. Adabiy saboqlar. Metodik qo'llanma. Umumta'limg muktablarining 7-sinf "Adabiyot" darsligi uchun. Toshkent: Bilim, 2003.
- Yo'ldoshev, Q. va boshqalar. Adabiyot. Darslik. Umumiyl o'rta ta'limg muktablarining 9-sinf o'quvchilari uchun. Toshkent: O'zbekiston, 2019.
- Yo'ldoshev, Q. va boshqalar. Adabiyot. Darslik. Umumiyl o'rta ta'limg muktablarining 7-sinf o'quvchilari uchun. Toshkent: Sharq, 2017.
- Мадаев, О. Навоий сұхбатлари. – Тошкент, Ўқитувчи, 2018.
- Навоий замондошлари хотирасида. Тўплам. Тузувчи: Б.Аҳмедов. – Тошкент, Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985.
- Навоий, А. Бадоеъ ул-васат. МАТ. 20 жилдлик, 5-жилд. Тошкент: Фан, 1990.
- Навоий, А. Ғаройиб ус-сигар. МАТ. 20 жилдлик, 3-жилд. Тошкент: Фан, 1988.
- Навоий, А. Фарҳод ва Ширин. МАТ. 20 жилдлик, 8-жилд. Тошкент: Фан, 1991.
- Навоий, А. Ҳикматли сўзлар. Тошкент, 1985.
- Султон, И. Алишер Навоий. Роман. – Тошкент, Адабиёт, 2021.
- Ҳасанов, Б. Навоий асарлари учун қисқача луғат. Тошкент: Фан, 1993.
- Эл деса Навоийни. Ҳазрат Мир Алишер Навоий ҳақида ривоятлар. – Тошкент, Чўлпон, 1991.